
Toshloq tumanida bayram tadbirlari davom etmoqda

"Naymanbo'ston" mahalla fuqarolar yig'inida yurtimizga bahor fasli kelishi munosabati bilan, Navro'z bayrami arafasida mahalladagi xotin-qizlar, nuroniy otaxonlar, mahalla faollari ishtirokida bayram oldi tadbiri o'tkazildi.

Bayramona dasturxon yozilib ishtirokchilarga bahoriy taomlar tortildi. Keksa nuroniylar yurtimiz tinch, hayotimiz farovon bo'lishini tilab duolar qilishdi.

Shu kuni mahallada yashovchi bemorligi bo'lgan hamda ehtiyojmand oilalar holidan xabar olindi.

2023-03-16 17:33:12